

DUTOR CHOLG'USINING KELIB CHIQISHI TARIXI VA MASHHUR IJROCHILAR

Yunusova Mashhura Shamsiddin qizi,
O'zMPU "Musiq ta'limi va san'at"
mutaxassisligi 1- bosqich magistranti

Ilmiy rahbar: Botirov Yo'ldoshali,
O'zMPU "Musiqiy ta'lim" kafedrasasi dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek xalq cholg'u asbobi bo'lgan dutorning kelib chiqish tarixi, uning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari yoritilgan. Shuningdek, dutor ijrochilik an'anasining shakllanishi, ijrochilik maktablari hamda mashhur dutor ijrochilarining milliy musiqa san'atiga qo'shgan hissasi tahlil qilingan. Maqolada dutorning xalq musiqa madaniyatidagi o'rni va uning zamonaviy ijrochilikdagi ahamiyati ilmiy asosda ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Dutor, xalq cholg'usi, o'zbek musiqasi, ijrochilik san'ati, maqom, an'ana, cholg'u madaniyati, Turg'un Alimatov, Xorazm maktabi, musiqiy meros.

ИСТОРИЯ ПРОИСХОЖДЕНИЯ ИНСТРУМЕНТА ДУТАР И ИЗВЕСТНЫЕ ИСПОЛНИТЕЛИ

Аннотация: В данной статье освещается история возникновения дутара, являющегося узбекским народным музыкальным инструментом, этапы его формирования и развития. Также проанализированы формирование традиции исполнения дутара, исполнительские школы и вклад известных исполнителей

дутара в национальное музыкальное искусство. В статье на научной основе раскрывается роль дутара в народной музыкальной культуре и его значение в современном исполнительстве.

Ключевые слова: Дутар, народный инструмент, узбекская музыка, исполнительское искусство, маком, традиция, музыкальная культура, Тургун Алиматов, Хорезмская школа, музыкальное наследие.

HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF THE DUTAR INSTRUMENT AND FAMOUS PERFORMERS

Abstract: This article examines the history of the origin of the dutar, an Uzbek folk musical instrument, and the stages of its formation and development. It also analyzes the formation of the dutar performance tradition, performance schools, and the contribution of famous dutar performers to national musical art. The article scientifically explores the role of the dutar in folk music culture and its significance in modern performance.

Keywords: Dutar, folk instrument, Uzbek music, performing arts, maqom, tradition, instrumental culture, Turgun Alimatov, Khorezm school, musical heritage.

Dutor o'zbek xalqining eng qadimiy va keng tarqalgan torli cholg'u asboblaridan biri bo'lib, milliy musiqa madaniyatida muhim o'rin tutadi. Uning nafis va yumshoq ohangi xalq qo'shiqlari, maqomlar hamda zamonaviy ijrochilikda keng qo'llaniladi. Dutor nafaqat musiqiy asbob, balki xalqning estetik didi va ma'naviy dunyosini ifodalovchi madaniy qadriyat sifatida ham qadrlanadi.

Dutorning kelib chiqishi qadimgi davrlarga borib taqaladi. U dastlab Markaziy Osiyo hududida shakllangan sodda torli cholg'ular asosida paydo bo'lgan. Bu cholg'u nafaqat o'zbek xalqi, balki qardosh tojik, uyg'ur, turkman, qoraqalpoq xalqlari orasida keng tarqalib, o'zlarining sevimli cholg'ulari deb hisoblashadi. Dutorga o'xshash bo'lgan cholg'ularni Ozarbayjonda "Saz", Gruzinlarda "Panduri", Qirg'izlarda "Komus", Qozoqlarda "Dombra" va

Xitoyliklarda “Pipa” nomlari bilan qo‘llanilib kelgan. Dutor torli chertma cholg‘u guruhiga kiradi. O‘zbek xalqining dutor cholg‘usi muloyim, nafis va shirali ovozi bilan boshqa cholg‘ulardan ajralib turadi. “Xalq orasida dutor “dilkash cholg‘u” nomini olgan. Unda ijro etilgan har qanday kuy ohang qalb torlarini tebratadi. Chunki bu nola qalb istagan ohangdir. Shuning uchun dutor ayollarimiz qo‘lida hasrat quroli, dil izhorini namoyish etish uchun hamroh bo‘lgan ko‘ngil oshnosidir”.

Dutor haqidagi ilk yozma ma’lumotlar Zaynulobiddin al-Husayniyning “Musiqaning ilmiy va amaliy qoidalari” risolasining XVI bobida uchraydi. XVI–XVII asrlarda esa “Dutoriy” taxallusi bilan ijod qilgan sozandalar — masalan, Hirotlik Yusuf Mavdudiy Dutoriy va Mashhadlik Mirquliy Dutoriy — nomlari tarixiy manbalarda qayd etilgan. Dutor asosan tut, o‘rik va yong‘oq daraxti yog‘ochlaridan tayyorlanadi. Uning tuzilishi katta noksimon shakldagi qovurg‘ali kosa, yog‘och qopqoq (deka) va uzun dastadan iborat bo‘lib, dastaga ichak pardalar bog‘lanadi. Kosa bilan dasta tutashgan qismi ko‘pincha yong‘oq yog‘ochidan ishlanadi. Qadimda dutorlar boshqa yog‘och cholg‘ular singari o‘yma usulda tayyorlangan. Hududlarga qarab dutorning qovurg‘alari soni farqlanadi: Buxoro, Xiva va Qoraqalpog‘istonda ikki qovurg‘ali, Samarqandda to‘rt qovurg‘ali, Toshkent va Qo‘qon hududlarida esa o‘n–o‘n ikki qovurg‘ali turlari uchraydi. Qovurg‘alar orasidagi choklar ingichka suyak yoki yog‘och piltalar bilan mustahkamlanadi. Masalan, 1948-yilda Usta Usmon Zufarov tomonidan yasalgan dutor 10 qovurg‘adan tashkil topgan bo‘lib, choklari suyak piltalar bilan bezatilgan. Dastasi va bosh qismi sadaf hamda suyak naqshlari bilan ziynatlangan, bo‘g‘zi o‘ymakorlik usulida ishlanib, gul va bulbul tasvirlari bilan bezatilgan. Cholg‘u qopqog‘ida 14 ta rezonans o‘yiq-lari mavjud. Uning og‘irligi taxminan 850 gramm, uzunligi 1200 mm, kosa kengligi esa 210 mm ni tashkil etadi. Dutor torlari an’anaviy ravishda ipak ipdan eshiladi va turli usullarda sozlanadi: Tanovar usulida kvartaga, Munojot usulida kvintaga, Qo‘sh-tor usulida esa unisonga sozlanib ijro etiladi.

Dutor cholg‘usi boshqa cholg‘ularimizga qaraganda zarblar jihatidan ham keng imkoniyatlarga ega. Shuning uchun ham xalq kuylari, maqomlarning qashqarcha,

soqinoma, ufor kabi sho‘xchan taronalari bu cholg‘uda o‘zgacha jarang topadi. Jo‘rnavoqlikda “dutor” va “tanbur” cholg‘ulari ijrosidagi kuylar bir biriga hamohangdir. Xususan, bu cholg‘ularda ijro qilinadigan kuylar yoki ashulalar misolida ko‘rishimiz mumkin. Bu cholg‘ular bir birini shunday to‘ldiradiki, ulardan go‘zal yangi bir ohang paydo bo‘ladi. Dutor, umuman xalq cholg‘ulari orasida ijrochilik san‘atida o‘ziga xosligi, an‘anaviy uslubda ijrochiligiga moyilliligi, xalq yo‘lidagi musiqamizda jozibaliligi hamda akademik yo‘nalishda keng mahoratli cholu ekanligini doimo namoyon etib kelmoqda. Dutor qaysi yo‘nalishda bo‘lmasin, ijrosida shu uslubga xos an‘anasi bor va ularni ifodalovchi o‘z jozibasi bor.

Ko‘rsatilgan usullarning (shtrixlarning) zarb yo‘nalishlari belgilari:

P – yuqoridan pastga zarb urish;

V - pastdan yuqoriga zarb urish;

Ko‘rsatilgan usullarning (shtrixlarning) harfiy belgilari:

K – ko‘rsatgich barmoq bilan zarb urish;

BZ - bilak zarb – bilak bilan zarb urish;

B - bosh barmoq bilan zarb urish;

Rizz - pitssikato (barmoq chertmak);

Tr - tremolo (rez) ko‘rsatkich barmoq bilan uzluksiz chertish.

J- jimjiloq bilan zarb urish;

Dutor chalish usullarini belgilash masalasi bir qancha mutaxassislarda qiziqish uyg‘otgan. Dutor ijrochiligining jozibasi – rang-barang zarblardan hosil bo‘ladigan sadolarni turli bezak va jilolar bilan bezashdir. Shu bois dutorga xos bezak – qochirimlar an‘anaviy ijrochilikda munosib o‘rin olgan. Ular sozandalar orasida qochirim, kashish, miyang‘, molish, nolish, to‘lqinlatish kabi iboralar bilan ataladi.

Har bir bezak o‘z ko‘rinishi, ijro uslubi va shunga xos jozibali sadosiga egadir. Ularni mahorat bilan amalga oshirish uchun ijro texnikasini o‘zlashtirish lozim. Quyida dutor ijrochiligiga xos jilo-bezaklarining sharhi, yozilish uslubi va nota namunasidagi o‘rnini qisqa misollarda keltiramiz. S.M.Taxalov o‘zbek an’anaviy musiqasida bezaklar haqida so‘z yuritgan. O‘zbek chertma cholg‘u asboblari ijro paytida ayrim tovushlar (ba‘zan bir necha tovush) torga urmasdan ijro etiladi. O‘sha notaning ustiga qo‘shuv (+) belgisi qo‘yiladi. Tovush chap qo‘l barmoqlarini pardaga bosish natijasida hosil qilinadi. Tanbur, dutor, qashqar va afg‘on ruboblarida tovush hosil qilishning ana shunday usuli ham turli melizmatik bezaklarni ijro etishda tez-tez uchrab turadi, bu an’anaviy ijrochilikda alohida o‘rin egallaydi.

Dutor cholg‘usi professional ijrochilik amaliyotida muhim o‘rin egallab, uning imkoniyatlari nafaqat milliy, balki jahon musiqa namunalarini talqin etishda ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Ayniqsa Sharq va Yevropa kompozitorlari asarlarining dutorda ijro etilishi bu cholg‘uning ifoda imkoniyatlarini kengaytirib, musiqiy mazmun va jozibani yanada boyitadi.

O‘zbek bastakor va kompozitorlari — Orif Qosimov, Doni Zokirov, G‘ofur Qodirov, Xamid Rahimov, Mardon Nasimov, Mustafo Bafoev, Qahramon Komilov, Abdusaid Nabiev, Alisher Rasulov — dutor uchun zamonaviy uslubda yaratgan asarlari bilan ijrochilik repertuarini boyitib, bu cholg‘uning professional sahnadagi mavqeini mustahkamlab kelmoqda. Shuningdek, dutor ijrochiligini yuksak darajaga olib chiqqan, ustozlik maktabini shakllantirgan san’atkorlar ham muhim o‘rin tutadi. Jumladan, Zohidjon Obidov, Faxriddin Sodiqov, Mahmud Yunusov, Orif Qosimov, G‘ulom Qo‘chqorov kabi ustozlar ijrochilik an’analarini rivojlantirishda katta hissa qo‘shganlar.

Dutor yasash san’ati ham alohida e’tiborga loyiq bo‘lib, bu borada Usta Usmon Zufarov, Zirojiddin Muhiddinov kabi ustalar tarixda muhim iz qoldirgan. Bugungi kunda esa Abdunabi Abdug‘ofurov kabi hunarmandlar ushbu an’anani davom ettirmoqda.

O‘zbekistonda dutorni keng ommalashtirishda va xalq orasida sevdirishda ko‘plab mashhur sozandalar faol ishtirok etgan. Ular qatoriga Orif Qosimov, Turg‘un Alimatov, G‘ulom Qo‘chqorov, Ro‘zibibi Xadjayeva, Malika Ziyayeva, Boqijon Rahimjonov, Sulton Qosimov, Gulchehra Muhammedova kabi mohir ijrochilar kiradi. Ularning ijodi natijasida dutor nafaqat milliy, balki professional sahnada ham keng qo‘llaniladigan, xalqimiz sevib tinglaydigan cholg‘ulardan biriga aylangan.

Xulosa

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, dutor o‘zbek xalqining eng qadimiy va boy musiqiy merosini ifodalovchi noyob cholg‘u asboblardan biri hisoblanadi. Uning kelib chiqishi uzoq tarixiy davrlarga borib taqalib, Markaziy Osiyo xalqlarining madaniy taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq holda shakllangan. Dutor nafaqat o‘zining sodda tuzilishi, balki nafis va dilbar ohangi bilan ham ajralib turib, xalq musiqasining asosiy ifoda vositalaridan biri sifatida rivojlanib kelgan.

Tarixiy manbalar, jumladan Zaynulobiddin al-Husayniy asarlarida dutor haqida berilgan ma’lumotlar ushbu cholg‘uning ilmiy asosda o‘rganilganini ko‘rsatadi. Asrlar davomida dutor ijrochiligi takomillashib, o‘ziga xos ijrochilik maktablari va an’analari shakllangan. Bu jarayonda Turg‘un Alimatov, Orif Qosimov kabi buyuk sozandalar ijodi alohida ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, dutor cholg‘usining texnik imkoniyatlari — turli zarb usullari, bezaklar (qochirim, kashish, nolish, tremolo va boshqalar) orqali boy ifodaviy vositalarga ega ekanligi uning professional ijrochilikdagi o‘rnini yanada mustahkamlaydi. Bu jihatlar dutorni nafaqat an’anaviy, balki akademik musiqa sahnasida ham muvaffaqiyatli qo‘llash imkonini bermoqda.

Zamonaviy davrda o‘zbek bastakorlari tomonidan dutor uchun yaratilayotgan yangi asarlar ushbu cholg‘uning imkoniyatlarini kengaytirib, uni jahon musiqa madaniyati bilan uyg‘unlashishiga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, cholg‘u yasovchi

ustalar faoliyati ham dutorning sifat jihatdan rivojlanishida muhim omil bo‘lib qolmoqda.

Xulosa qilib aytganda, dutor — bu faqatgina musiqa asbobi emas, balki o‘zbek xalqining ruhiyati, estetik didi va tarixiy xotirasini mujassam etgan bebaho madaniy merosdir. Uni o‘rganish, asrash va yosh avlodga yetkazish bugungi kunda dolzarb vazifalardan biri bo‘lib, milliy musiqa san’atining yanada rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rajabiy, Y. *O‘zbek xalq musiqasi*. Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot, 1980.
2. Karimov, B. *Maqom san’ati va uning tarixi*. Toshkent: O‘qituvchi, 2005.
3. Yunusov, M. *O‘zbek cholg‘u asboblari*. Toshkent: Fan, 2012.
4. Mirzayev, A. *Sharq musiqiy merosi*. Toshkent: Ma’naviyat, 2018.
5. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi materiallari.
6. <https://inlibrary.uz/index.php/canrms/article/view/132618>
7. <https://web-journal.ru/journal/article/view/6481>